

BRONXIAL ASTMA YALLIG'LANISH JARAYONLARI VA UNING KLINIK BELGILARI.

Ernazarova Madina Ilxom qizi
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
OMX fakulteti 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Alikulova Dildora Yaxshiboyevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada bronxial astmani yallig'lanish jarayonlari va u bilan bog'liq klinik belgilari, kasallikni keltirib chiqaradigan asoratlari tog'risida ma'lumotlar keltirib o'tamiz. Klinik jihatdan astma yo'tal, nafas siqishi, ko'krak qafasidagi og'riq va astma krizisi bilan namoyon bo'ladi. Astma allergenlar, infeksiyalar yoki havoning ifloslanishi ta'sirida boshlanadi va bronxial epitelij hujayralarining faollashuvi orqali immun javobni keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Bronxial astma, allergen, nafas siqishi, yo'tal yallig'lanish, simptom, hamshira parvarishi.

Bronxial astma-surunkali, yuqumsiz va yallig'lanish tabiatli havo yo'llari kasalligidir. Kasallikda nafas olish organlarida surunkali yallig'lanish jarayonlari bronxial gipperfunktsiya keltirib chiqaradi. Natijada allergenlar yoki boshqa qo'zg'atuvchi ta'sirlar bilan uchrashganda yuzaga keladi, havo oqimi sekinlashadi va bog'ilish hissi paydo bo'ladi. Astma huruji odatda qo'zg'atuvchi ta'sirdan keyin rivojlanadi. Natijada nafas olish qiyinlashadi odam tez-tez yo'taladi va nafas chiqarayotganda shovqin eshitiladi. Ko'pincha balg'am bilan birga keladi.

Astma xuruji odatda qisqa vaqt ichida boshlanadi va har bir odamda turli xil ko'rinishda namoyon bo'lib ba'zi hollarda tez davom etadi ba'zan esa uzoq davom etadi.

Bronxial astmaning sabablari turlicha bo'lishi mumkin: genetik moyillik, iflos havo, infeksiyalar va hatto stress sababli kelib chiqishi mumkin shuning uchun astmani simptomlar bilan emas balki uning sabablarini aniqlash va oldini olish bilan ham nazorat qilish muhimdir.

Agar astma nazorat qilinmasa u nafaqat kundalik qiyinlashtiradi, balki o'pka va yurakka zarar yetkazishi hatto jiddiy astma xurujiga olib kelishi mumkin.

1. Genetik moyillik

Astma ko'pincha oilaviy moyillik bilan bog'liq. Agar ota-onadan biri yoki ikkalasi astma yoki allergik kasalliklarga chalingan bo'lsa, bolada ham astma rivojlanish xavfi yuqori bo'ladi. Genetik omillar immun tizimning allergenlarga ortiqcha javob berishiga ta'sir qiladi.

2. Allergenlar

Eng ko'p uchraydigan sabablar – uy-sharoit allergenlari (chang, chang changalari, hayvon tuklari, mog'or), polen, zamburug'lar va hasharot chaqishi. Allergik ta'sir bronxial shilliq qavatni sezgir qiladi va yallig'lanish jarayonini boshlaydi.

3. Infektsiyalar

Bolalarda virusli nafas yo'llari infektsiyalari, xususan respirator sincitial virus (RSV) yoki gripp, bronxial astma rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. Infektsiyalar bronxial epiteliya zarar yetkazadi va immun javobni kuchaytiradi.

4. Atrof-muhit omillari


Havo ifloslanishi (chang, gaz, tutun), chekish va sanoat chiqindilari bronxial shilliq qavatni tirnash xususiyati bilan ta'sir qiladi. Sovuq va nam havo ham bronxial spazmni kuchaytirishi mumkin.

5. Jismoniy faoliyat va stress

Ba'zi hollarda intensiv jismoniy mashqlar yoki stress bronxial torayishni keltirib chiqaradi. Bu vaziyat "jismoniy astma" yoki "stress astmasi" deb ataladi.

6. Gormonal va boshqa ichki omillar

Ba'zi odamlar uchun astma hayz sikli, homiladorlik yoki boshqa gormonal o'zgarishlar davrida kuchayadi. Shuningdek, ba'zi dori vositalari (masalan, aspirindan) bronxial spazmni chaqirishi mumkin.



Davolashning asosiy maqsadi – bronxial yallig'lanishni nazorat qilish, astma xurujlarini oldini olish va nafas olishni osonlashtirishdir.

1. Dori vositalari yordamida davolash.

Astma davolashda dorilar asosiy rol o'ynaydi va ikki guruhga bo'linadi:

Doimiy nazorat qiluvchi dorilar (controller medications):

Bu dorilar surunkali yallig'lanishni kamaytiradi va astma xurujlarining oldini oladi. Ular orasida:

Inhalatsion kortikosteroidlar (ICS) – bronxial shilliq qavatdagi yallig‘lanishni kamaytiradi

Kombinatsiyalangan dorilar (ICS + uzun ta’sir qiluvchi bronxodilatatorlar)

Biologik preparatlar – og‘ir astma holatlarida ishlatiladi.

Tezkor yordam beruvchi dorilar (reliever medications):

Astma xuruj paytida bronxial spazmni tezda kamaytiradi. Eng ko‘p ishlatiladiganlar:

Qisqa ta’sir qiluvchi bronxodilatatorlar (salbutamol, fenoterol)

2. Allergenlardan himoya va profilaktika

Astmani kuchaytiruvchi allergenlar va irritantlardan saqlanish juda muhim:

- Uyda chang va mog‘ordan tozalash
- Hayvonlar bilan aloqa cheklash
- Chekish va tutunli joylardan uzoq turish

3. Hayot tarzini o‘zgartirish

- Muntazam jismoniy mashqlar, ayniqsa nafas olishga yordam beradigan mashqlar
- Stressni kamaytirish, dam olish va uyquni tartibga solish
- Sog‘lom ovqatlanish va immun tizimni mustahkamlash

4. Favqulodda vaziyatlarda yordam

- Astma xurujlari paytida:
- Tezkor bronxodilatator inhalatsiyasini qo‘llash
- Og‘ir holatlarda shoshilinch tibbiy yordam chaqirish

Xulosa

Bronxial astma — surunkali yallig‘lanishli kasallik bo‘lib, nafas yo‘llarining torayishi va bo‘g‘ilish xurujlari bilan kechadi. Kasallikni erta aniqlash, allergenlardan saqlanish va muntazam davolanish bemorning hayot sifatini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исаева Ш.Ш., Хакимова М.А. “Bolalar kasalliklari” – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.
2. Qodirova M.M., Mamatqulova G.M. “Pediatriyada hamshiralik ishi” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Global Initiative for Asthma (GINA). Global Strategy for Asthma Management and Prevention, 2024 Update.
4. World Health Organization (WHO). Asthma: Key Facts – 2023.
5. Khasanova D., Karimova N. “Allergologiya va immunologiya asoslari” – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2021.